

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 383,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 10,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,0 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	26 399,0	32 383,9	110,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 852,4	31 646,1	110,2
mahsulotlarga sof soliqlar	546,6	737,8	113,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 852,4	31 646,1	110,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 301,4	8 581,8	106,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 892,4	8 085,9	116,2
sanoat	5 049,2	5 372,9	107,5
qurilish	1 843,2	2 713,0	140,2
xizmatlar	12 658,6	14 978,4	108,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 484,1	5 257,8	111,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 546,7	2 112,3	131,2
boshqa xizmat tarmoqlari	6 627,8	7 608,3	102,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 740,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 9,0 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



**2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24,4	27,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,6	25,6
sanoat	19,5	17,0
qurilish	7,1	8,6
xizmatlar	49,0	47,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17,3	16,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	6,7
boshqa xizmat tarmoqlari	25,7	24,0

2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,1 % ni, sanoat tarmog'i 17,0 % ni, qurilish 8,6 % ni va xizmatlar sohasi 47,3 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,4 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 2,8 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 3,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,1 %), sanoatda – 107,5 % (17,0 %), qurilishda – 140,2 % (8,6 %), xizmatlar sohasida – 108,9 % ni (47,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,1 % (16,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 131,2 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (24,0 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 128,5 % va xizmatlarda – 108,6 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 20 970,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 16 781,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 66,3 % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 64,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2025- yil

16 781,3

64,9 %

2026- yil

20 970,5

66,3 %

